



G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATI TAHLILI

G'ofurova Durdona

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqola bolalarning va bizning sevimli adibimiz O'zbekistonning taniqli yozuvchisi, urushdan keyingi davrdagi o'zbek adabiyoti rivojida beqiyos o'rin tutgan shaxs G'afur G'ulom, hamda uning hayoti va ijodi uning she'riy va nasriy janrining badiiy tahlili xususidagi ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *"Feliks farzandlari", "Dinamo", "Xitoy suratlari", "Biz sizlar bilan tirikmiz", "Jonli qo'shiqlar", "Sizga", "Sovg'a", "Tong qo'shig'i", "Qo'qon", singishinma, contrast*

O'zbek adabiyotining yirik namoyondasi, O'zbekiston xalq shoiri, akademik G'afur G'ulom hayoti va ijodi bolalarning sevimli shoiri, shu bilan birgalikda bizning ham sevimli shoirimizdir. Jahon va milliy adabiyotimizning tarixini kuzatib bir qonuniyatni o'zingiz uchun kashf etgan bo'sangiz ajab emas. U ham bo'lsa, aksariyat ijodkorlar adabiyotining muayyan bir yo'nalishdagi ijodiy yutuqlari bilan ko'proq dovrug' qozongandir. Ya'ni kimdir she'riyatda, kimdir nasrda, boshqa bir ijodkor esa dramaturgiyada ijodiy qanotlarini keng yoyadi. Xuddi shu tufayli ham Lev Tolstoy, Fyodor Mixayilovich Dostoveyskiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor deganimizda ko'z oldimizda epik (nasriy) janrlar ustalari namoyon bo'lsa Sergey Yesenin, Abdulla To'qay, Usmon Nosir, Hamid Olimjon nomi tilga olinganda, beixtiyor, she'r musiqasi qulog'imizga chalinadi. G'afur G'ulom misolida esa bu yozilmagan qonuniyatlarning har doim ham amal qilavermasligiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni G'afur G'ulom ham she'riy ham nasriy janrlarda birdek muvaffaqiyat bilan qalam tebratdi, har ikki yo'nalishda o'zidan nodir namunalar qoldirdi. She'rlar, dostonlar, ocherklar, hajviy hikoyalar va qissalari gazeta va jurnallarda chop etila boshlaydi. 1923-yil yozilgan "Feliks farzandlari" she'rida yetim bolalar haqida gapirarkan, unda yozuvchi o'z hayotini ifodalaydi, "Maorif va o'qituvchi" oynomasida esa "Go'zallik qayerda" nomli ikkinchi she'ri nashr qilinadi. Birin-ketin she'riy to'plamlari bosmadan chiqadi: "Dinamo", "Xitoy suratlari", "Biz sizlar bilan tirikmiz", "Jonli qo'shiqlar", "Sizga", "Sovg'a", "Tong qo'shig'i", "Qo'qon" dostoni va boshqalar.

Ikkinchi jahon urushi voqealari, ko'rguliklari G'afur G'ulom qalbida o'chmas iz qoldirdi. Agar u birinchi jahon urush yillarida bolaligiga borib, urushning butun daxshati va asoratlarini to'liq his qila olmagan bo'lsa yangi urushni va uni qo'zg'aganlarini ijodkor o'zining shaxsiy, ashaddiy dushmani deb bildi. Shu yillari shoirning "Sen yetim emassan", "Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak", "Men Yahudiy" singari tom ma'nodagi mumtoz she'riyatlarini dunyoga keldi. Shoir urush



yillarida yozilgan she'rlari jamlangan "Sharqdan kelayotirman" to'plami uchun 1946-yilda Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. G'afur G'ulomning 30-yil boshlarida yozilgan she'rlarida yangi shakllarga burilish seziladi, bunga mumtoz rus tilini o'rganishi ham muhim darajada ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari, sanoatning o'sishi, Turksib temir yo'l magistralining qurilishi kabi uning ona yurtida sodir bo'layotgan ajoyib o'zgarishlarni ta'riflash uchun yangi lug'at boyligi, yangi she'riy bo'yoqlar, yangi ohang va vazn talab etilgan. "Dinamo" (1931), "Tirik qo'shiqlar" (1932) — yosh shoirning yo'nalishi yorqin namoyon bo'lgan birinchi she'riy to'plamlari.

Shoirning boqiy hayot, mangu ko'k daraxt haqidagi "Qish va qor" (1929), "Non" (1931), "Toshkent" (1933), "Qutbda saylovlar" (1937), "Men - Yahudiyman" (1941), "Qish" (1941), "Xotin" (1942), "Afsuski, afsusni qo'shib ko'mmadi" (1945), "Bog" (1934), "Qayg'u" (1942), "Kuz keldi" (1945), "Kuzgi ko'chatlar" (1948) kabi she'rlarida umuminsoniylik, insonparvarlik mavzulari o'z aksini topdi.

G'afur G'ulom qisqa, o'tkir sujetli hikoyalar ustasi sifatida ham taniqli bo'lib, hikoya uslubi o'rnida u yozuvchining savol-javoblari bilan to'ldirilgan jonli do'stona bahs-munozara shaklida, mualliflik nutqi va kitobxonga erkin yuzlanish orqali foydalanadi. G'afur G'ulom tomonidan 30-yillarda yaratilgan ko'plab nasriy asarlar yangi insoniy munosabatlarga bag'ishlangan. U asarlarida yoritgan asosiy muammo va yechimlar – bu insonning axloqiy tarbiyasi, uning ma'naviy va madaniy rivoji sari kurashdir. G'ulomning o'zbek bolalar adabiyotini rivojlantirish sohasidagi xizmatlarini alohida umumlashtirish yo'nalishidagi ilk urinishlar XX asrning o'rtalaridayoq yuzaga kelgan edi. O'shanda pedagogika bilim yurtlarida o'qishga mo'ljallangan bolalar adabiyoti faniga oid o'quv qo'llanma G'ulomning bolalar shoiri va nosiri qiyofasiga otalik va murabbiylik tuyg'ulari chuqur singishinmalari va xrestomatiyalarida G'ulom alohida ijodkor sifatida taqdim etilib, uning haqida portret-maqola va asarlaridan namunalar berila boshlangan edi. G'afurb ketgan. Bunda etimlikda kechgan bolalik hotiralari ta'siri ayricha rol o'ynaganini alohida ta'kidlash joiz. Shu holat uni qo'lga qalam olib ilk she'rini yozishga undagan edi. «Bir kuni, – deb yozgan edi u o'zining «Kechmish va kechirmishlarimdan» xotiranomasida, –bolalar bog'chasidagi yetim bolalardan 15 tasini bizning internatga o'tkazdilar. Men bu go'daklar bilan birga tunab qoldim. Kechasi uxlamay, kuzatuvchilik qilib chiqdim. Shu kecha o'z yetimligim, boshimdan kechirganlarim va shu yetim bolalarahvoli to'g'risida she'r yozdim. Shu she'rimni birinchi she'rim desam bo'ladi". O'sha ilk she'ridayoq u bolalarning ham hazrati Odam farzandi ekanligini, binobarin, ular ham insonday yashash va ulg'ayish huquqiga ega ekanliklarini ularning o'z tillaridan favqulodda bir ko'tarinkilik bilan ifoda etgan edi.

Biz Odam bolasimiz,
Odamning donasimiz.



Biz o'sib ulg'ayamiz,
Olim bo'lish g'oyamiz.

G'afur G'ulom yetimlikda ulg'ayganini umr bo'yi unuta olmadi. Yetimlik uni o'ksik qalb sohibiga aylantirgan va mudom ta'qib etganligi tufayli bolalarga atab qaysi mavzuda she'r yozmasin, o'sha zahoti xotirasi qatlaridagi yetimlik armonlari uyg'onishi tabiiy edi. Kattalar uchun yozilgan va XX asrdagi o'zbek she'riyatida voqeaga aylangan «Sen yetim emassan»da ham, bolalarga atab bitilgan «Bayram maktubi» va boshqa qator she'rlarida ham bu holni kuzatish mumkin. Inchunin, shoirning roppa-rosa ellik ikki yasharligida yaratgan «Bayram maktubi» she'rida o'qiymiz:

O'ttiz sakkiz yil burun
Bugungi siz bilan teng
O'n to'rt yoshlarda edim.
Tongsiz, uzun kechqurun
Qora qo'ynin ochar keng
Ko'z o'ngida uchurum.
Maktab qayoqda deysiz?
Nonning hatto o'zi yo'q,
Bo'z yaktak, yirtiq ishton
Eshiksiz, o'tsiz, nursiz,
Vayronalar qup-quruq,
Halq tentirar parishon
Oq podshoning urushi
Yurtni yergacha toptab,
Tekkan edi tinkaga
Och qo'shinning yurishi
Er yuzini gur o'rtab,
O'xshardi alangaga.

Rus mustamlakachiligi siyosatining butun fojeasini bolalik xotirasi vositasida shu xilda fosh etarkan, qonxo'r fashistlar ming-minglab bolalarni ota-onalaridan ayro etib, yetim qoldirayotganidan jirkanganida yana o'sha «o'ninchi yillar sargardonligi»ni eslamay, o'tolmaydi:G'.Gulomning o'smirlar kitobxonligining asosini tashkil etgan «Netay», «Yodgor» va «Shum bola» qissalarida shu muammo tahlil qilindi. Adib asarlarida yetimlikni keltirib chiqargan sabab va oqibatlarga badiiy nazar solish yo'lidan boradi.

Shoir voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berish bilan cheklanmay, peyzaj tasvirining qahramonlar ruhiyatiga turlicha ta'sirini ham ko'rsatadi. Masalan, Yovga qiron solgan qadrdon qish bu... / Yov qochar, chekinar, uvlar, betoqat cingari o'rinlarda shoir qahramonlar ruhiyat-holatini ularga bo'lgan antipatiasidan kelib chiqib ochadi. Demak, «Qish» she'ridagi peyzaj tasviri syujet



voqealari asoslanishi va rivojiga kontrastli fon asosida turtki bergan. Lirik subyekt ruhiyatidan o'tkazib berilgan ifoda esa, o'sha kayfiyatning suratiga aylangan.

Rus qishi belgi-sifatlaridagi o'ziga xos fazilat shundaki, u shu elning suyukli farzandlariga qalqon va aksincha, yurt dushmanlariga qopqondir:

Rossiya qishining xislatlari bor,
U yov uchun qopqon, bizlarga qalqon,
Moskvadan qocharkan shumshuk Napoleon
Ming bir bahonani qilsa ham takror,
Bu bizningcha oddiy arpa uni-ku,
Ammo haqiqatan qadrdon qish bu.

G'. G'ulom "shumshuk" deb baholab, qilmishlariga nisbatan nafratini yashirmayotgan kishi aslida Fransiya davlat arbobi va harbiy sarkardasi - imperator Napoleon I (Napoleon Bonapart, 1769-1821) dir. Shoir bu o'rinda uning olti yuz qirq ming kishilik "Buyuk armiya" si bilan siyosiy-iqtisodiy ustunlik da'vosida 1812 yilda Rossiyaga qilgan bosqinchilik yurishlari halokatli yakun topganini nazarda tutgan. Ma'lumki, o'shanda komondon M.I.Kurtuzov Moskvani jangsiz vaqtinchalik tashlab chiqsa ham, unga asl sarkardalarga xos tadbirkorlik, qahramon xalq lashkari qo'llovi bilan bir qatorda, qahraton Rus sovug'i ham yaqin madadkor bo'lgan edi. Natijada, Napaleon I qo'mondonlikni tashlab qochib, armiyasini butkul yo'qotgan. Sharmandalarcha mag'lub bo'lgan bu kimsa Neman, Polsha va Kyonigsbergdagi ta'qiblardan o'takasi yorilib bazo'r Parijga yetib olgan. Umrining so'nggi yillarini Sant-Yelena orolida asirlikda o'tkazishga mahkum etilgandi.

Afsuski, qaltis va tahlikali davrda yashagan G'. G'ulom har qadamda nihoyatda siyosiy xushyor turishga katta majburiyat sezgan. Jumladan, o'zining xalq bilan doimo birga ekani, o'tmishdan butkul uzilganini ta'kidlab borishni kanda qilmagan. G'. G'ulom ulkan to'fon samoviy yomg'ir va yerning to'rt burjidan chiqarilgan suvdan paydo bo'lgani, uzoq umr ko'rgan Nuh payg'ambar o'z qavmini hidoyatga chorlab qilgan da'vatlari javobsiz qolgach, kofirlarni jazolashni so'rab qilgan iltijosi natijasi ekanini bilardi. Halokatning bosh sababi bandaning Olohga kufir keltirishi va najot manbai imondan ekanidan ogoh edi. Biroq, shoir "to'fon" haqida gapirish asnosida diniy qissalar afsona, bugungi voqelikkina real haqiqatligini tasdiqlashga majburiyat sezgan. Ana shunday o'rinlarda uning "men" ligi "biz" bilan birikib ketgan. Bugungi kunda ularni zamonasozlik yuzasidan aytilgan fikrlar tarzida izohlagan ma'qul.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islamjon Yakubov. Çağdaş özbek romanlarinin poetik yapısında şarki ve türkülerin yeri/ Dil ve edebiyat araştırmaları i karabük üniversitesi yayınları: 53 Karabük – 2020.



2. Islamjon Yakubov. Dynamics of character //International Scientific Journal Ukraina, 2016. - № 5
3. Matyakubova Tozagul. Folk spirit and style in artistic creativity // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) Insiya, February.2020.
4. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -T.: «Маънавият», 2000.
5. Tozagul Matyakubova. Gafur Gulom ve Nazim Hikmet siirlerinde mustereklikve bireysellik // Guncel sanat. Saye 2, 2011, -S. 63-65
6. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami.12 jildlik. J.1. –T.: Fan, 1983
7. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 jildlik. J.2. –T.:Fan 1984.
8. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 jildlik. J.3. –T.: Fan, 1985
9. Cho'lpon. Asarlar. Uch jildlik. I jild. – T.: Adabiyot va san'at, 1994.
10. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima / Tarj. Alouddin Mansur. -T; Cho'lpon, 1992